

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA NUTQ AKTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI: QIYOSIY-PRAGMALINGVISTIK TAHLIL

**Avazxon Ziyayev Ixtiyorovich**

**Xorijiy tillar nazariyasi kafedrası professori, filologiya fanlari doktori (DSc),**

**Qo‘qon davlat universiteti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20733040>

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida nutq aktlarining pragmatik xususiyatlari qiyosiy-pragmalingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ikki til vakillarining kommunikativ maqsadlarni ifodalash jarayonida qo‘llaydigan pragmatik strategiyalari, xususan, iltimos, buyruq, taklif va rad etish nutq aktlarining lingvistik hamda ekstralingvistik omillar bilan bog‘liqligini aniqlashdan iborat. Tahlil natijalari ingliz tilida bilvosita kommunikatsiya va xushmuomalalik strategiyalari ustuvor ekanligini, o‘zbek tilida esa ijtimoiy maqom, yosh va milliy-madaniy qadriyatlar nutq aktlarining shakllanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** pragmalingvistika, nutq akti, kommunikativ niyat, xushmuomalalik strategiyasi, bilvosita nutq akti, diskurs, pragmatik ma‘no, lingvomadaniyat.

### **Kirish**

Til faqat axborot uzatish vositasi emas, balki insonning maqsadli kommunikativ faoliyatini amalga oshiruvchi murakkab ijtimoiy hodisadir. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilning kommunikativ va pragmatik jihatlariga bo‘lgan qiziqish ortib, natijada pragmalingvistika mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Ushbu yo‘nalish til birliklarining muloqot jarayonidagi funksional xususiyatlarini o‘rganadi. Nutq aktlari nazariyasi pragmalingvistikaning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur nazariya dastlab J. Austin tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, keyinchalik J. Searle tomonidan mukammallashtirilgan (Austin, 1962; Searle, 1969). Olimlarning fikricha, har qanday nutqiy birlik ma‘lum kommunikativ maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Demak, gapning grammatik shakli emas, balki uning kommunikativ vazifasi muhim hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida ham nutq aktlari masalasi pragmalingvistika doirasida keng tadqiq etilgan. Sh. Safarov, M. Hakimov, D. Xudoyberganova, N. Mahmudov kabi olimlar nutqning pragmatik tabiati va kommunikativ xususiyatlariga oid muhim ilmiy qarashlarni ilgari surganlar (Safarov, 2008; Hakimov, 2013).

J. Austin nutqiy faoliyatni uch bosqichga ajratadi: lokutsion, illokutsion va perlokutsion aktlar. Lokutsion akt ma‘lum bir fikrning ifodalanishi bo‘lsa, illokutsion akt so‘zlovchining kommunikativ niyatini, perlokutsion akt esa tinglovchida yuzaga keladigan ta‘sirni ifodalaydi (Austin, 1962).

J. Searle nutq aktlarini quyidagi guruhlarga ajratadi: Representativlar; Direktivlar; Komissivlar; Ekspressivlar; Deklarativlar.

Mazkur tasnif hozirgi pragmalingvistik tadqiqotlarning nazariy asosini tashkil etadi (Searle, 1969).

Nutq aktlari mazmunining shakllanishida kontekst muhim rol o‘ynaydi. G. Leech pragmatik ma‘noning yuzaga kelishini kommunikativ vaziyat bilan bog‘laydi. Uning ta‘kidlashicha, bir xil sintaktik konstruktsiya turli vaziyatlarda turlicha pragmatik ma‘no kasb etishi mumkin (Leech, 1983).

Ingliz tilida kommunikativ samaradorlik ko'pincha bilvosita nutq aktlari orqali ta'minlanadi. Ayniqsa, iltimos va taklif kabi direktiv aktlarda so'zlovchi buyruq ohangidan qochib, yumshoq shakllarni tanlaydi. Masalan: *Could you open the window?* Mazkur gap grammatik jihatdan so'roq gap bo'lsa-da, uning illokutsion maqsadi iltimos qilishdan iborat.

P. Brown va S. Levinson xushmuomalalik nazariyasida bunday holatlarni "face-saving strategy" deb ataydi. Ularning fikricha, ingliz madaniyatida shaxsiy hudud va mustaqillik qadriyat sifatida baholanadi. Shu sababli kommunikatsiyada bilvositalik yuqori darajada rivojlangan (Brown & Levinson, 1987). Shuningdek, ingliz tilida modal fe'llar yordamida direktiv aktlarning yumshatilishi keng tarqalgan:

*Could you help me?*

*Would you mind waiting a moment?*

*I was wondering if you could assist me.*

Blum-Kulka tadqiqotlari ham ingliz tilida iltimos aktlarining ko'p hollarda bilvosita shakllarda ifodalanishini ko'rsatadi (Blum-Kulka, 1989).

O'zbek tilida nutq aktlari shakllanishida milliy madaniyat, ijtimoiy maqom, yosh va hurmat kategoriyasi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek kommunikativ madaniyatida kollektivism tamoyili kuchli bo'lgani sababli muloqot jarayonida ijtimoiy munosabatlar alohida ahamiyatga ega. Masalan: *Derazani ochib yuborsangiz. Bir yordam berib yuboring.*

*Keling, bir maslahatlashib olaylik.*

Mazkur misollarda "yubormoq", "olmoq" kabi ko'makchi fe'llar iltimosning yumshoq ifodalanishiga xizmat qilmoqda.

Sh. Safarov o'z tadqiqotlarida o'zbek tilidagi pragmatik birliklarning milliy tafakkur bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, o'zbek nutq madaniyatida hurmat kategoriyasi kommunikativ strategiyaning markaziy komponentlaridan biridir (Safarov, 2008).

D. Xudoyberganovaning tadqiqotlarida esa murojaat shakllari va pragmatik vositalarning milliy mentalitet bilan bog'liqligi ko'rsatib berilgan (Xudoyberganova, 2015).

O'zbek tilida direktiv aktlarning aksariyati grammatik buyruq shaklida bo'lsa ham, pragmatik jihatdan yumshatilgan bo'ladi: *O'tiring. Marhamat, kiring. Choydan oling.* Bu shakllar ingliz tilidagi buyruq gaplarga qaraganda ancha muloyim pragmatik ma'no kasb etadi. Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida bilvositalik sintaktik va modal vositalar orqali amalga oshirilsa, o'zbek tilida pragmatik yumshatkichlar, hurmat affikslari va madaniy formulalar orqali yuzaga chiqadi. Masalan: Ingliz tili: *Would it be possible for you to send me the report?* O'zbek tili: *Hisobotni yuborib yuborsangiz yaxshi bo'lardi.*

Har ikkala misolda kommunikativ maqsad bir xil bo'lsa-da, unga erishish mexanizmlari turlicha. M. Hakimovning pragmatik tadqiqotlarida o'zbek kommunikatsiyasida implitsit ma'no va presuppozitsiyaning muhim o'rin tutishi qayd etiladi (Hakimov, 2013). Ingliz tilida esa Grice tomonidan tavsiflangan kooperatsiya prinsipi va konversatsion implikaturalar nutq aktlarining talqin qilinishida muhim rol o'ynaydi (Grice, 1975). Tahlillar natijasida ingliz tilida individualizm va shaxsiy erkinlik konsepti, o'zbek tilida esa hurmat va ijtimoiy birdamlik konsepti nutq aktlari shakllanishining asosiy pragmatik omillari ekanligi aniqlandi.

### **Xulosa**

Nutq aktlari tilning kommunikativ-pragmatik tizimida markaziy o'rin egallaydi. Ingliz va o'zbek tillarining qiyosiy tahlili ikki tilda kommunikativ maqsadlar o'xshash bo'lsa-da, ularni ifodalash usullari sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatdi. Ingliz tilida bilvositalik va xushmuomalalik strategiyalari ustuvor ahamiyatga ega bo'lsa, o'zbek tilida milliy-madaniy

qadriyatlar, hurmat kategoriyasi va ijtimoiy maqom nutq aktlarining pragmatik mazmunini belgilaydi.

Shuningdek, nutq aktlarining shakllanishida lingvistik omillar bilan bir qatorda ekstralingvistik omillar ham muhim rol o'ynashi aniqlandi. Ushbu tadqiqot natijalari qiyosiy pragmalingvistika, lingvomadaniyatshunoslik va diskurs tahlili sohalarida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin..

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Toshkent: Sharq, 2010.
2. Austin J. L. How to Do Things with Words. Oxford: Oxford University Press, 1962.
3. Blum-Kulka S., House J., Kasper G. Cross-Cultural Pragmatics: Requests and Apologies. Norwood, NJ: Ablex Publishing, 1989.
4. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press, 1987.
5. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Oxford: Blackwell, 2008.
6. Grice H. P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3. New York, 1975.
7. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi masalalari. Toshkent, 2013.
8. Kasper G., Rose K. Pragmatic Development in a Second Language. Blackwell Publishing, 2002.
9. Leech G. N. Principles of Pragmatics. London: Longman, 1983.
10. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab. Toshkent: Fan, 2012.
11. Mey J. L. Pragmatics: An Introduction. Oxford: Blackwell, 2001.
12. Nurmonov A. Lingvistik pragmatika asoslari. Toshkent, 2010.
13. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Toshkent, 2006.
14. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008.
15. Searle J. R. Expression and Meaning. Cambridge University Press, 1979.